

2019 yil 22-23 aprel kunlari Xalqaro yer kuniga bag'ishlanib o'tkaziladigan "Yer resurslarini boshqarish va muhofaza qilishda innovatsion yondoshuvlar: muammo va kreativ yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

2019 yil 22-23 aprel kunlari Xalqaro yer kuniga bag'ishlanib o'tkaziladigan "Yer resurslarini boshqarish va muhofaza qilishda innovatsion yondoshuvlar: muammo va kreativ yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

AXBOROT XATI

Anjumanning asosiy maqsadi: Yer resurslaridan foydalanishni boshqarish va muhofaza qilishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish tajribalarini umumlashtirish asosida kreativ yechimlarni aniqlash yo'llari va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Anjumanda quyidagi ilmiy yo'nalishlarda ish olib boriladi:

- Yer resurslarini boshqarish, muhofaza qilish va innovatsion rivojlantirish istiqbollari;
- Geodeziya, geoinformatika va davlat kadastrlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish muammolari;
- Irrigatsiya va melioratsiya sohasida innovatsion yondoshuvlar;
- Yer va suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy va ekologik innovatsiyalar hamda ularni joriy etishning dolzarbligi;
- Gidrotextnika inshootlari va nasos stansiyalarini qurish va ulardan foydalanishda innovatsion yondoshuvlar;
- Suv xo'jaligini avtomatlashtirish va elektrlashtirishda innovatsion yondoshuvlar;
- Qishloq va suv xo'jaligini mexanizatsiyalashtirishda innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etishning dolzarb muammolari;
- Yer resurslarini boshqarish, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammolari.

Rasmiylashtirishiga oid talablar: Matn o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Taqdim qilinadigan material annotatsiya, matn, jadval, rasm va foydalanilgan adabiyotlar ruyxati bilan 5 betgacha bo'lishi, A-4 o'lchamli oq qog'ozda to'liq sahifalanib, Word 2003 taxrirlagichda Times New Roman 12 shriftida 1,0 intervalda puxta taxrirlangan holda tayyorlanishi kerak. Elektron shakli bilan (USB-fleshkada) taqdim etiladi. Matn o'ng tomondan 2,2 sm, chap tomondan 2,3 sm, yuqoridan 2,0 sm, pastdan 2,0 sm xoshiya qoldirib tayyorlanadi.

Ma'ruza sarlavhasi katta harflar bilan markazlashgan holda qoraytirib yoziladi, keyingi qatorga muallif(lar)ning F.I.Sh. ish joyi ko'rsatiladi. So'ngra bir interval tashlab mavzuning annotatsiyasi, keyin asosiy maqsadi beriladi va yana bir interval tashlab asosiy matn joylashtiriladi.

Maqolalar ekspertiza dalolatnomasi to'ldirilgan holda **2019 yilning 10 aprel sanasiga qadar** qabul qilinadi.

Tashkiliy qo'mita manzili: 100000 Toshkent sh., Yunusobod tumani, Xalqobod 2 tor ko'chasi, 4 uy. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti. Yer resurslarini boshqarish fakulteti. Tel: (71) 234-88-15, (71) 234-02-57.

Elektron manzil: info_confyrb@umail.uz